

## YUQORI SINIF O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK SIFATLARINI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta’lim muhitida shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi vatanparvarlik sifatlarining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda raqamli ta’lim muhitining tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me’oriy-huquqiy hujjatlar, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada vatanparvarlik sifatlarining kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlardan iborat tuzilishi asoslandi. Shuningdek, “raqamli vatanparvarlik tarbiyasi” tushunchasi aniqlashtirildi va uni tashkil etishning pedagogik shartlari ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik sifatleri, raqamli ta’lim muhiti, yuqori sinf o‘quvchilari, raqamli vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, interaktiv ta’lim, tarbiyaviy platforma.

## ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Аннотация.** В статье анализируются теоретико-педагогические основы формирования патриотических качеств у учащихся старших классов в цифровой образовательной среде. Цель исследования состоит в научном обосновании содержания патриотических качеств, их структурных компонентов и воспитательного потенциала цифровой образовательной среды. В исследовании использованы методы анализа научно-педагогической литературы и нормативно-правовых документов, сравнительного анализа, системного подхода и обобщения. В результате обоснована структура патриотических качеств, включающая когнитивный, эмоционально-ценностный и деятельностно-поведенческий компоненты. Также уточнено понятие «цифровое патриотическое воспитание» и разработаны педагогические условия его организации.

**Ключевые слова:** патриотические качества, цифровая образовательная среда, учащиеся старших классов, цифровое патриотическое воспитание, национальные ценности, интерактивное обучение, воспитательная платформа.

## THEORETICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING PATRIOTIC QUALITIES IN HIGH SCHOOL STUDENTS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

**Abstract.** The article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of forming patriotic qualities in high school students in a digital educational environment. The purpose of the study is to scientifically substantiate the content of patriotic qualities, their structural components, and the educational potential of the digital learning environment. The research applies the analysis of scientific and pedagogical literature, regulatory documents, comparative analysis, a systematic approach, and generalization. As a result, the structure of patriotic qualities consisting of cognitive, emotional-value, and activity-behavioral components is substantiated. The concept of “digital patriotic education” is also clarified, and pedagogical conditions for its organization are proposed.

**Keywords:** patriotic qualities, digital educational environment, high school students, digital patriotic education, national values, interactive learning, educational platform.

**Kirish.** Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va yoshlar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'payishi sharoitida yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi o'quvchi tarixiy xotira, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni nafaqat an'anaviy dars jarayonida, balki raqamli axborot maydonida ham o'zlashtiradi. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni zamonaviy raqamli ta'lim imkoniyatlari bilan uyg'unlashgan holda qayta talqin etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda ta'lim tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida belgilangan. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish uchun huquqiy asos yaratadi [1]. Prezidentning 2024-yil 15-noyabrda PQ-393-son qarori esa o'quvchi-yoshlarda Vatan himoyachisi bo'lishga mehr va havas uyg'otish, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish bilan bevosita bog'liq [2]. Shuningdek, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va "Tarbiya" fani konsepsiyasi maktab ta'limida shaxsning ma'naviy, axloqiy hamda fuqarolik fazilatlarini bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutadi [3; 4].

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limni raqamlashtirish ko'pincha ikki alohida yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Maktablar faoliyatida eMaktab, kundalik.com, elektron resurslar, virtual muzeylar, videodarslar, onlayn loyihalar va ta'lim platformalaridan foydalanilayotgan bo'lsa-da, ularning tarbiyaviy, xususan vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi imkoniyatlari tizimli metodika darajasida yetarli ochib berilmagan. Raqamli vositalar ko'p hollarda nazorat, baholash yoki axborot uzatish funksiyasi bilan cheklanib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhitida shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlashdan iborat. Maqola vazifalari quyidagilardan iborat: vatanparvarlik sifatlarining mohiyati va tarkibiy komponentlarini aniqlash; yuqori sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish; raqamli ta'lim muhitining tarbiyaviy salohiyatini asoslash; raqamli vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish shartlari va diagnostik mezonlarini belgilash.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Vatanparvarlik tarbiyasi masalasi pedagogika, psixologiya, ijtimoiy falsafa va ma'naviyatshunoslik kesishmasida o'rganiladigan murakkab ilmiy muammodir. M. Quronov milliy tarbiyani shaxsda milliy o'zlik, tarixiy xotira, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi [5]. U. Mahkamov axloqiy tarbiya va ma'naviy madaniyat masalalarini yoshlar shaxsini kamol toptirishning asosiy sharti sifatida yoritadi [6]. Ushbu yondashuvlar vatanparvarlikni faqat hissiy kechinma emas, balki bilim, qadriyat va amaliy harakat birligi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari U.Sh. Begimqulov tadqiqotlarida axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari nuqtai nazaridan tahlil qilingan [7]. Mazkur yondashuvga ko'ra, raqamli texnologiya o'qituvchining o'rnini bosmaydi; aksincha, pedagogik maqsad aniq belgilangan taqdiridagina ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi vositaga aylanadi. V.A. Suxomlinskiy tarbiyada bolaning qalbiga ta'sir etish, Vatanga muhabbatni hayotiy tajriba va shaxsiy mas'uliyat orqali singdirish g'oyasini ilgari surgan [8]. Bu g'oya raqamli muhitda ham o'z ahamiyatini saqlaydi, chunki zamonaviy texnologiya tarbiyaviy mazmun bilan boyitilmasa, o'quvchining qadriyatlar tizimiga kutilgan ijobiy ta'sirni bermaydi.

Yuqori sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari I.S. Kon, L.S. Vigotskiy va D.B. Elkonin asarlarida yoritilgan. Ilk o'spirinlik davrida shaxsning "Men" konsepsiyasi, hayotiy maqsadlari, qadriyat tanlovi va ijtimoiy pozitsiyasi faol shakllanadi [9; 10; 11]. Shu jihatdan 15–18 yosh oralig'i vatanparvarlik sifatlarini ongli, barqaror va ijtimoiy faol shaklda rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. M. Prensky "raqamli avlod" tushunchasini kiritib, zamonaviy

o'quvchilarning axborotni tez qabul qilishi, vizual materiallarga moyilligi va interaktivlikka ehtiyojini ta'kidlaydi [12]. J.M. Twenge esa raqamli muhit yoshlarning muloqot, o'zini namoyon qilish va ijtimoiylashuv shakllariga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [13].

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ta'lim jarayonidagi raqamli resurslar va zamonaviy tarbiyaviy yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv, modellashtirish va ilmiy umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonni raqamli ta'lim muhiti orqali tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslari belgilandi.

### **Natijalar va muhokama**

Vatanparvarlik sifatlarining mohiyati va tuzilishi. Tadqiqot natijasida vatanparvarlik sifatleri shaxsning o'z Vatani, xalqi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va davlat manfaatlariga ongli, ijobiy hamda faol munosabatini ifodalovchi integral shaxsiy sifat sifatida talqin qilindi. Bu sifat Vatanga muhabbat, milliy g'urur, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchini anglash va Vatan ravnaqi yo'lida amaliy faoliyatga tayyorlik kabi belgilarni o'z ichiga oladi. Demak, vatanparvarlikni faqat shior, tadbir yoki hissiy chaqiriq doirasida tushunish yetarli emas; u shaxsning bilimi, qadriyati va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan yaxlit tarbiyaviy natijadir.

Vatanparvarlik sifatlarining uch komponentli tuzilishi asoslandi. Birinchi komponent - kognitiv komponent bo'lib, u o'quvchining Vatan tarixi, davlat ramzlari, milliy qadriyatlar, mustaqillik g'oyasi, ajdodlar merosi va fuqarolik huquq-burchlari haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Ikkinchi komponent -emotsional-qadriyatli komponent bo'lib, unda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, daxldorlik hissi, sadoqat va ijtimoiy hamjihatlik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Uchinchi komponent - faoliyatli-xulqiy komponent bo'lib, o'quvchining ijtimoiy foydali faoliyatga qo'shilishi, tashabbus ko'rsatishi, maktab va mahalla hayotida faol ishtirok etishi, raqamli makonda mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilishi bilan belgilanadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitishni talab qiladi. Bu davrda o'quvchi mustaqil fikrlashga intiladi, o'z hayotiy pozitsiyasini aniqlaydi, turli axborot manbalariga tanqidiy munosabat bildira boshlaydi. Shuning uchun tarbiyaviy jarayon buyruqbozlik yoki tayyor xulosalarni yodlatish asosida emas, balki muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar, loyiha ishlari va mustaqil izlanishlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Raqamli muhit bu jarayonni jonlantirish, o'quvchini faol subyektga aylantirish va tarbiyaviy materialni hayotiy tajriba bilan bog'lash imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhiti ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalar, elektron resurslar, milliy platformalar, multimedia materiallari, virtual muloqot va interaktiv topshiriqlar asosida tashkil etiladigan yaxlit pedagogik makondir. Bunday muhitning vatanparvarlik tarbiyasidagi afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi: axborotni vizual va emotsional ta'sirchan shaklda taqdim etish; o'quvchining mustaqil izlanishiga sharoit yaratish; milliy-tarixiy materiallarni multimedia orqali jonlantirish; hududiy va vaqt cheklovlarini kamaytirish; jamoaviy loyihalar orqali ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Masalan, virtual muzeylar, tarixiy xaritalar, elektron arxivlar, videointervyular, onlayn viktorinalar va raqamli portfoliolar o'quvchining nafaqat bilimini, balki daxldorlik hissini ham kuchaytiradi.

Tadqiqotning muhim natijasi sifatida "raqamli vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchasi aniqlashtirildi. Raqamli vatanparvarlik tarbiyasi — bu o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlari, interaktiv resurslar va pedagogik boshqaruv asosida maqsadli shakllantirish jarayonidir. Ushbu jarayonning samaradorligi raqamli vositaning o'ziga emas, balki uning qanday maqsad, mazmun va metodika bilan qo'llanishiga bog'liq. Raqamli texnologiya tarbiyaviy mazmundan ajralgan holda neytral vosita bo'lib qoladi; milliy-ma'naviy mazmun bilan boyitilgandagina u vatanparvarlik tarbiyasining ta'sirchan omiliga aylanadi.

### **Raqamli vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shartlari**

Raqamli ta'lim muhitida vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishda birinchi pedagogik shart — tarbiyaviy maqsadning aniq belgilanishidir. Har bir raqamli topshiriq, videoresurs, onlayn test

yoki loyiha o'quvchida qaysi sifatni rivojlantirishi oldindan aniqlanishi lozim. Masalan, tarixiy manbalar bilan ishlash kognitiv komponentni, milliy qahramonlar hayoti haqidagi hujjatli lavhalar emotsional-qadriyatli komponentni, maktab yoki mahalla hayotiga oid ijtimoiy loyiha esa faoliyatli-xulqiy komponentni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqsadsiz berilgan raqamli material o'quvchining e'tiborini vaqtincha jalb qilishi mumkin, biroq barqaror tarbiyaviy natija bermaydi.

Ikkinchi shart - raqamli kontentning milliy-ma'naviy mazmun bilan boyitilishidir. Yuqori sinf o'quvchilari uchun tayyorlanadigan elektron resurslarda O'zbekiston tarixi, mustaqillik yutuqlari, davlat ramzlari, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, zamonaviy qahramonlar, ilm-fan va sportdagi yutuqlar, Vatan himoyasi va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq materiallar tizimli berilishi zarur. Bunda materiallar quruq ma'lumot tarzida emas, balki muammoli savol, hayotiy voqea, interaktiv xarita, videolavha, infografika yoki loyiha topshirig'i shaklida taqdim etilsa, o'quvchining qiziqishi va emotsional ishtiroki ortadi.

Uchinchi shart - o'quvchini raqamli tarbiya jarayonining passiv tinglovchisi emas, faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Buning uchun "Mening mahallam tarixi", "Vatan ravnaqi uchun mening hissam", "Oilamdagi harbiy xotira", "Ajdodlar merosi va bugungi yoshlar" kabi mavzularda raqamli portfoliolar, taqdimotlar, videoroliklar, podkastlar va onlayn loyiha ishlari tashkil etilishi mumkin. Bunday topshiriqlarda o'quvchi tayyor ma'lumotni ko'chirib olish bilan cheklanmaydi, balki izlaydi, tanlaydi, tahlil qiladi, o'z fikrini bildiradi va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot yaratadi. Natijada vatanparvarlik sifati shaxsiy tajriba bilan bog'lanadi.

To'rtinchi shart - raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatini tarbiyaviy jarayon bilan uyg'unlashtirishdir. Vatanparvarlik tarbiyasi raqamli makonda axborotni tanqidiy baholash, soxta xabarlarini ajratish, milliy manfaatlariga zid axborot ta'sirlariga nisbatan ongli immunitet hosil qilish bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli yuqori sinf o'quvchilariga media savodxonlik, axborot manbalarini solishtirish, raqamli etikaga rioya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli muloqot yuritish ko'nikmalarini o'rgatish muhim. Raqamli vatanparvarlik tarbiyasi faqat tarixiy xotirani eslatish emas, balki zamonaviy axborot maydonida mas'uliyatli fuqaro bo'lish madaniyatini shakllantirishni ham anglatadi.

Beshinchi shart - o'qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasidir. O'qituvchi elektron platformadan foydalanishni bilishi bilan birga, raqamli resursni tarbiyaviy maqsadga mos tanlay olishi, o'quvchi faoliyatini boshqarishi, onlayn muhokamani pedagogik mezonlar asosida yo'naltirishi va natijani baholay olishi zarur. Demak, raqamli vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi o'qituvchining metodik tayyorgarligi, milliy-ma'naviy dunyoqarashi va kommunikativ mahorati bilan bevosita bog'liq.

### **Pedagogik model va diagnostik mezonlar**

Yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhitida shakllantirish modeli maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy bloklardan iborat bo'lishi mumkin. Maqsadli blok o'quvchida Vatanga muhabbat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratiladi. Mazmunli blok tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, davlat ramzlari, huquqiy madaniyat, Vatan himoyasi, ijtimoiy birdamlik va zamonaviy taraqqiyot g'oyalari bilan boyitiladi. Texnologik blokda virtual muzey, elektron platforma, multimedia dars, veb-kvest, onlayn loyiha, interaktiv test, raqamli portfolio va muhokama forumlari qo'llaniladi. Natijaviy blok esa o'quvchining bilim, qadriyat va xulqiy faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar bilan baholanadi.

Diagnostik mezonlar ham uch komponentga mos belgilanadi. Kognitiv mezon bo'yicha o'quvchining Vatan tarixi, davlat ramzlari, milliy qadriyatlar va fuqarolik burchlari haqidagi bilimlari aniqlanadi. Emotsional-qadriyatli mezon bo'yicha o'quvchining Vatanga daxldorlik hissi, milliy g'ururi, ijtimoiy hamjihatlikka munosabati va ma'naviy qadriyatlarni qadrlashi baholanadi. Faoliyatli-xulqiy mezon bo'yicha esa o'quvchining jamoaviy loyihalarda ishtiroki, tashabbuskorligi, ijtimoiy foydali faoliyatga qo'shilishi, raqamli muhitda mas'uliyatli xatti-harakat ko'rsatishi tahlil qilinadi. Ushbu mezonlar asosida past, o'rta va yuqori darajalar belgilanib, tarbiyaviy ishlarning natijadorligi monitoring qilinadi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar an'anaviy tarbiya metodlarini inkor etmaydi. Aksincha, suhbat, namuna ko'rsatish, ekskursiya, uchrashuv, jamoaviy tadbir va loyiha

metodlari raqamli resurslar bilan uyg'unlashganda ta'sirchanlik ortadi. Masalan, real muzeyga tashrif virtual tayyorgarlik bilan, tarixiy mavzudagi sinf soati elektron viktorina bilan, vatanparvarlik tadbiri raqamli portfolio bilan boyitilishi mumkin. Eng samarali yondashuv aralash, ya'ni an'anaviy va raqamli tarbiya vositalarining uzviy birligidir.

#### **Xulosa**

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhitida shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi. Vatanparvarlik sifatleri kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlar birligidan iborat integral shaxsiy sifat sifatida talqin qilindi. Yuqori sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari, ya'ni mustaqil fikrlashga intilish, qadriyat tanlovining faollashuvi va raqamli axborotga moyillik bu sifatleri shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Raqamli ta'lim muhiti interaktivlik, vizuallashtirish, shaxsiylashtirish, tezkor aloqa, loyiha faoliyati va emotsional ta'sirchanlik imkoniyatlari orqali vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar faqat pedagogik maqsad, milliy-ma'naviy mazmun, o'qituvchining metodik boshqaruvi va o'quvchining faol ishtiroki mavjud bo'lgan taqdirdagina tarbiyaviy natija beradi. Maqolada "raqamli vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchasi aniqlashtirildi, uni tashkil etishning pedagogik shartlari va diagnostik mezonlari belgilandi. Olingan natijalar kelgusida mazkur yo'nalishda pedagogik modelni tajriba-sinovdan o'tkazish va amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 'Tarbiya' fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. — Toshkent: Ma'naviyat, 2007. — 240 b.
6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. — Toshkent: Fan, 1994. — 136 b.
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. — Toshkent: Fan, 2007. — 159 b.
8. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. — Киев: Радянська школа, 1974. — 288 с.
9. Кон И.С. Психология ранней юности: книга для учителя. — Москва: Просвещение, 1989. — 255 с.
10. Выготский Л.С. Психология развития человека. — Москва: Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.
11. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. — Москва: Педагогика, 1989. — 560 с.
12. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. — MCB University Press, 2001. — Vol. 9, No. 5. — P. 1–6.
13. Twenge J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy — and Completely Unprepared for Adulthood. — New York: Atria Books, 2017. — 352 p.